O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI OLOT TUMANI HOKIMINING QARORI

Buxoro viloyati, Olot tumani, Olot ko’chasi, 73-uy. Tel: (365) 34-22-114, faks: (365) 34-22-539

2022 - yil 7 - dekabr 410-2-31-Q/22 Olot tuman hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarning ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida Uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risida”gi nizomga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarning ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Buxoro viloyati Olot tuman filiali (F.Ochilov), ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarning ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi” asosida ish yuritilishini ta’minlasin.

3. Mazkur qaror “Olot hayoti” gazetasi tahririyatida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining

o‘rinbosari(Sh.Hamrayev) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **N. Nematova**

Olot tuman hokimining
2022 yil 7 dekabrdagi
410-2-31-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarning ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi

1. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildi uy yoki turar joyfoydalanishga qabul qilib olinayotganda yoxud turar joy Uy-joy fondigakiritilayotganda tuziladi.

Keyingi texnik hisobga olish uylar va turar joylarni vaqti-vaqti bilanrejali xatlovlar o‘tkazish yo‘li bilan besh yilda kamida bir marta, shuningdek,rejadan tashqari tekshirishlar jarayonida hisobga olish ko‘rsatkichlari o‘zgarishlari aniqlanishiga qarab amalga oshiriladi.

2. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlarningayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar mustaqil hujjatlarni tashkil etadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida Uyjoy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risida”gi nizomga asosan Uy-joy fondi inson yashashi uchun yaroqli bo‘lgan turar joydan, shu jumladan, uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy- joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar, internat-uylar, shuningdek bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylar)dan iborat bo‘lgan fond.

4. Uy-joy fondini hisobga olish texnik hujjatlar yig‘ma jildi, ro‘yxatdan o‘tkazish daftarlari, inventar hujjatlar yig‘ma jildida shakllangan ro‘yxatdan o‘tkazilgan hujjatlarning nusxalari, boshqa inventarizatsiya hujjatlari tuman yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi arxivida saqlanadi.

5. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari Davlat kadastrlari palatasi Buxoro viloyati Olot tuman filialiga ariza bilan murojaat qiladi.

6. Arizalar Davlat kadastrlari palatasi Buxoro viloyati Olot tuman filiali tomonidan qabul qilib olinadi va shu kunning o‘zida arizalar reyestriga qayd

qilinadi.

7. Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari uy vaturar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun Davlat kadastrlari palatasi Buxoro viloyati Olot tuman filialiga telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat ko‘rinishida ariza berishlari mumkin.

Ushbu nusxalardan iborat kadastr yig‘ma jildining har bir varag‘iga Davlat kadastrlari palatasi Buxoro viloyati Olot tuman filiali rahbari tomonidan asliga to‘g‘ri degan yozuv kiritiladi va imzolanadi hamda arizakelib tushgan kundan boshlab ikki ish kun ichida huquq egasiga topshiriladi.